“O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan “O‘zbekistonda kimyo texnologiyalari markazining salohiyatini oshirish” loyihasi doirasida Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan xalqaro shartnoma – muhokama bayonnomasi imzolandi

// 28.06.2022
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/koreya-xalqaro-hamkorlik-agentligi-koica-bilan-xalqaro-shartnoma-muhokama-bayonnomasi-imzolandi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 28-dekabrdagi PQ-67-son qarori ijrosi doirasida “Koreya-O‘zbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti – Kimyo texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish” investitsiya loyihasi doirasida Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda, ushbu ilmiy markaz faoliyatini samarali tashkil etish hamda uning salohiyatini oshirish bo‘yicha 7 mln. dollar miqdoridagi grant mablag‘lari ajratilishi belgilangan bo‘lib, joriy yil 24-iyun kuni “O‘zkimyosanoat” AJ bilan agentlik o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi xalqaro shartnoma – muhokama bayonnomasini imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Shartnoma doirasida ilmiy markaz faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha agentlik tomonidan ajratiladigan 7 mln. dollar miqdoridagi grant mablag‘lari hisobidan birgalikda Bosh reja ishlab chiqish, uning salohiyatini oshirish bo‘yicha fan doktorlari (PhD), magistrlar hamda laboratoriya xodimlarini tayyorlash, shuningdek, xodimlar malakasini oshirish bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-maydagi 06/1-3254-son topshirig‘iga muvofiq ilmiy markazni malakali kadrlar bilan ta’minlash maqsadida, hozirgi kunda “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi bilan birgalikda, 2023-yildan boshlab kimyo sohasida PhD (PhD, 10 nafar) va magistratura (12 nafar) yo‘nalishida ta’lim olish uchun tanlov asosida Koreya Respublikasiga talabalarni yuborish bo‘yicha tanlovlar e’lon qilindi. Ushbu tanlovlarni samarali hamda keng qamrovda tashkil etish maqsadida, ommaviy axborot vositalari, rasmiy telegram kanallari va ijtimoiy tarmoqlarda tanlovlar to‘g‘risida e’lonlar berilib, keng yoritildi.